

Namangandan Krasnoyarskka parvozlar amalga oshirilishi boshlandi

2022 29 Mart

2022-yil 29-mart kuni «Sharqiy» xab loyihasi doirasida Uzbekistan Express Namangan - Krasnoyarsk - Namangan xalqaro yo'nalishi bo'yicha ilk parvozni amalga oshiradi. Ushbu yo'nalishdagi muntazam aviaqatnovlar «to'liq ekonom» formatida seshanba kunlari amalga oshiriladi.

Namangandan uchish: 17:35 (Toshkent vaqt bilan)

Krasnoyarskka yetib borish: 22:50 (Krasnoyarsk vaqt bilan)

Krasnoyarskdan uchish: 00:20 (Krasnoyarsk vaqt bilan)

Namanganga yetib kelish: 01:55 (Toshkent vaqt bilan)

Namangan - Krasnoyarsk yo'nalishi bo'yicha bagaj bilan aviachipta narxi 2 388 069 so'mdan, Namangan - Krasnoyarsk - Namangan yo'nalishi bo'yicha esa 4 433 304 so'mdan boshlanadi.

Narxlari 29.03.2022 holatiga ko'ra amal qiladi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy saytida, Uzbekistan Airways Sales filialida yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qiling.